

SA'DUDDIN TAFTAZONIY VA MIR SAYYID SHARIF JURJONIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA IJTIMOY MUAMMOLAR VA AXLOQIY MASALALARNING TADQIQI

Mustayev Ruslan Damirovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid: 0009-0000-8944-4975

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22669377>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-axloqiy qarashlarining germevntik asoslari, Yangi O'zbekistonda Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar:

Temuriylar davri, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, tarbiyaviy, faoliyat, germevntik asos, tarixiy-falsafiy tahlil.

Bugungi dunyo ilmiy jamoatchiligi e'tirof etayotgan asosiy ijtimoiy voqeliklardan biri ilm-fan va islom dini tamadduniga o'zlarining betakror hissasini qo'shgan Markaziy Osiyolik olimu mutafakkirlarning ma'naviy merosidir. "Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz avliyolar yetishib chiqqan", Markaziy Osiyolik olimlar o'z asarlarida insonlar o'rtasida mehr-muhabbat, rahm-shafqat, o'zaro yordam ko'rsatish, millatlar, xalqlar va dinlar o'rtasida sabr-toqat, hurmat va umumiy birdamlik hamda hamkorlik ruhidagi aloqalarni mustahkamlashni obyektiv zaruriyat deb bilganlar. Bunday chuqur ilmiy va nazariy mulohazalarga asoslangan qoidalar va mezonlar ma'rifiy islomni tushunish va o'rganishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy boshqaruv sohasida olib borilayotgan bugungi demokratik islohotlar zahirida xalqning dardu tashvishi, muammoli holatlarini anglab yetadigan, uni bartaraf etishga qodir bo'lgan rahbar kadrlar masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etildi. "Zamonaviy ishboshi"larda asrlar osha qadr topgan tarixiy an'analar va bugungi dunyo zamonaviy bilimlarining uyg'unligini ta'minlash obyektiv zaruriyat sifatida baholanadi. Bu esa, jamiyatda tez sur'atlarda "halol vaksinatsiya" jarayonining yuksalishiga xizmat qiladi. Islom fenomeni negizida paydo bulgan Taftazoniy ma'naviy merosining xalqlar va millatlar o'rtasida ijtimoiy totuvlikni ta'minlashdagi ahamiyati dialektik qarashlar asosida yoritilgan. Jumladan, mintaqalarning islomlashish jarayonida paydo bo'lgan destruktiv oqimlarning asossiz fikrlariga qarshi jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyalar haqida so'z boradi. Mutafakkir Taftazoniyning hech qachon zamon va makon tanlamaydigan konstruktiv qarashlari jamiyatda istiqomat qilayotgan ijtimoiy qatlam vakillari hayotining bir maromda yuksalishi, ularda murosasozlik (konsensuslik) masalalarining taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayon, davlat va jamiyatning, unda yashovchi

insonlarning manfaatlarida yuzaga kelgan muvozanat va konsensus holati zaruriyat nuqtai nazaridan bugungi kun uchun ham ahamiyatli jihat hisoblanadi.

Insoniyat tarixining so'nggi choragida jahon miqyosida diniy ixtiloflar murakkablashib, yakdil e'tiqod sifatida shakllangan islom dinida mutaassib oqimlar faoliyati kuchayib borayotganligi hammamizga ayon. Bunday o'ziga xos mafkuraviy kurash jarayonida sof aqida va kalom ilmlari xulosalariga tayanish har bir kishiga to'g'ri yo'lni tanlash imkoniyatini beradi.

Globalashuv sharoitida buzg'unchi g'oyalar ta'sirida murakkablashib, asl mazmun-mohiyatini yo'qotayotgan imon, tavhid, fiqh, kalom va shu kabi mavzulardagi tushunchalarni vatandoshimiz Abu Xafs Nasafiyning "Aqoid an-Nasafi" asari orqali yoritib berish o'ziga xos ahamiyatga ega. Musulmon olamida alohida ahamiyatga ega bo'lgan hanafiy-moturidiylik ta'limotining asosiy manbasi hisoblangan ushbu asar sof islom aqidasi amallari va ma'rifiy islomni o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Abu Xafs Nasafiyning "Aqoid" asariga yozilgan sharhlardan eng mashhuri va ommabopi Taftazoniyning "Sharh al-aqoid" asaridir. Hoji Halifaning "Kashf az-zunnon" asarida aytilishicha, "Aqoid an-Nasafi" asariga Taftazoniy bilan bir vaqtda 50ga yaqin muallif tomonidan sharhlar yozilgan. Ularning ichida Sa'duddin Taftazoniy tomonidan yozilgan "Sharh al-aqoid" asari har tomonlama eng mukammal sharh sifatida e'tirof etiladi.

Amerikalik islomshunos olim Erl Edgar Elder (1882-1968) Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-aqoid" asarini 1950 yilda ingliz tiliga tarjima qildi. Bu jarayon amerikalik musulmon jamoalarining islom dini aqidaviy masalalari yuzasidan ilmiy bilimlarini yana bir pog'ona ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Usmoniylar davlatida ham "Sharh al-aqoid" asari madrasalarda rasman dastur asosida o'qitilgan va bir necha marta usmoniylar davlati tiliga tarjima qilingan. Bularning barchasi, mazkur asarga nisbatan diniy-ijtimoiy tus berilganligidan dalolat beradi. Shundan aytish mumkinki, ko'pchilik usmoniylar davlatidagi kalom ilmi vakillari o'zlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarida "Sharh al-aqoid"ga yaqindan yondoshganligi ma'lum bo'ladi.

Hozirda ham Taftazoniyning sharhi sunniylik ta'limotini o'rgatuvchi asar sifatida ta'lim dargohlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. Ajablanarlisi shundaki, bu asar islomdagi "reformator"larni ham e'tiboridan chetda qolmagan. Jumladan, Jamoliddin Afg'oniy kabi reformator ham Misrga borganida o'ziga xayrixoh talabalar bilan bo'lgan birinchi darsini Taftazoniyning "Sharh al-aqoid" asaridan boshlagan. Bundan ma'lum bo'ladiki, ayrim islomiy arkonlarini tan olmaydigan, radikal ruhda g'oyalar ta'siri ostida bo'lgan Afg'oniy ham, "Sharh al-aqoid" asarini inkor eta olmagan.

Taftazoniyning mazkur asari ilmiy jamoatchilikni asrlar davomida e'tirofini qozonib kelmoqda. Ushbu asar asosan, Istanbul, Qohira va Hindistonda nashr etilgan. Qozon tatar musulmonlari jamoasida ham ushbu asarga qiziqish yuqori bo'lgan va bir necha marta chop etilgan. Rezeda Sayfulinaning ta'kidlashicha, "Sharh al-aqoid" tatar musulmonlari tomonidan taxminan 15 marotaba nashr etilgan. Asarning yozilishi tarixi va sabablari to'g'risida aytish mumkinki, Taftazoniy "Sharh al-aqoid"ning avval boshida aqida ilmi tarixi va unga bo'lgan jamiyatdagi ijtimoiy zarurat to'g'risida to'xtalib o'tadi. Islom dini paydo bo'lgan davrda kishilik jamiyatidagi muhit musaffo va shaffof bo'lganligi, ixtilofli va bahs-munozarali voqea-hodisalarning kamligi, aqidaviy masalalarga payg'ambar (s.a.v.)ning bevosita o'zlari tomonidan yechim topilganligi ta'kidlab o'tiladi.

Keyinchalik davrlar o'tishi bilan musulmonlar jamoasi orasida kelishmovchiliklarning paydo bo'lishi, dinda yangiliklarni yuzaga kelishi, fitnalar, dindorlarga qarshi tajovuzlar ko'payishi, diniy ulamolarga muayyan masalalar yuzasidan savol-murojaatlarning soni ortib borishi va bu murojaatlar bo'yicha javob-fatvolar ko'payishi, xullas, dindagi umumiy fikrlar to'qnashuvi natijasida asarning yozilishiga ijtimoiy zarurat paydo bo'ldi.

Taftazoniy o'z sharhining boshida moturidiy aqidaviy mazhabidagi boshqa olimlar kabi ma'rifat hosil qilish vositalarini bayon qilish jarayonida aqlning tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntiradi. Asar davomida mutafakkir islomdan ajralib chiqqan mu'taziliylar, jabariylar, qadariylar va karromiylar kabi botil firqalarning fikrlaridan iqtibos keltirib ularni tahlil qiladi. Ularga nisbatan sunniylik raddiyalarini berib borgan. Asarda bahs-munozaraga sabab bo'lgan

aqidaviy masalalardan biri Yaratuvchi-ilohni ko'rish masalasiga e'tiborni qaratib quyidagilarni aytib o'tadi: "Alloh taoloning ko'rish aqlida joiz va naqlida vojibdur. Oxirat maskanida mo'minlarning Alloh taoloni ko'rishlari zaruriyatiga sam'iy dalillar vorid bo'lgandir. Demak, Alloh taolo ko'riladi, bu ko'rish makonda emas, yuzma-yuz turiladigan tarafda emas. Yoki yorug'likning tushuvi, ko'ruvchi bilan Alloh taolo orasida masofa qaror topishi ham bo'lmaydi. Yuqoridagi aqliy dalillarni mantiqiy mushohadali fikrlar asosida hamda aqidaviy masalalar asosida tushuntirishga harakat qilinadi.

Shuningdek, Sa'duddin Taftazoniy yashagan davrda faoliyat yuritgan va "Aqoid an-Nasafiy" asarida keltirilgan "so'fastoiylik" kabi qarashlari bilan islom aqidasi aralashishga harakat qilgan turli oqimlar fikrlariga aqliy hamda falsafiy dalil asosida raddiyalar bildirgan. Asarda aytilishicha "so'fastoiyya" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, undagi "so'fo" ilm ma'nosida, "isto" g'alati, noto'g'ri ma'nosidagi so'zlardir. So'fastoiyya sofistika terminining sharqdagi nomlanishidir. "Safsata" so'zi ham mana shu so'zdan olingan. Mazkur toifa vakillari qarashlarida narsa va jismlarning haqiqatini inkor qilish g'oyasi bilan xarakterlanadi. Narsa-jismlar xayol va tasavvurdan iborat deb fikr yuritadilar. Toifaning ba'zi vakillari hattoki, narsalar e'tiqodga bog'liq, agar narsani "javhar" deb e'tiqod qilsak, javhardir. Agar qadimiy, deb e'tiqod qilsak, qadimiydir. Agar yangi paydo bo'lgan deb e'tiqod qilsak, yangi paydo bo'lgandir kabi mantiqsiz fikrlarni aytib o'tadilar.

Bunda o'z-o'zidan ma'lumki, ashyolarning real holatlaridan uzoqlashish jarayoni paydo bo'ladi. Ashyolardagi suvrat va siyrat birligi yuqoladi. Mantiqning tafakkur qonuniyatlari buziladi: "Batahqiq, ahli haq ko'rish mumkinligiga ikki yo'l aql va naqldan dalil keltirgan. Birinchi yul quyidagicha ayon (jism), a'roz (sifat)larini ko'rish zarurat ekaniga qat'iyon ishonamiz. Biz ko'rish ila jism bilan jism va sifat bilan sifat orasini ajratamiz. Bas, mushtarak hukmga mushtarak illat zarur. O'sha illat mavjudlik paydo bo'lishi yoki mumkinlikdir. To'rtinchisi bo'lishi mumkin emas. Paydo bo'lish ham yo'qlikdan so'nggi mavjudlikdan iboratdir. Mumkinlik esa, mavjudlik va yo'qlikning zarurati yo'qligidan iboratdir. Illat bo'lishiga yo'qlikning daxli yo'qdir. Bas, shunday bo'lgandan keyin faqat vujud qolishi ayon bo'ldi. U esa Yaratuvchi va undan boshqa orasida mushtarakdir. Shuning uchun to'g'ri illat mavjudlik bo'lganidan keyin uning ko'rinishi ham sahih bo'ladi".

Taftazoniy asarda borliq to'g'risidagi fikrlarini quyidagicha bayon qiladi. Olam jami bo'laklari bilan paydo bo'lgandir. Chunki olam ayon va a'rozlardan iboratdir. Bas, ayon o'z zoti ila (ya'ni, o'zicha) tura oladigan narsalardir. U har xil narsalardan tarkib topadigan yoki tarkib topmaydigan bo'ladi. U bo'laklarga bo'linmaydigan (eng kichik zarrasimon) bo'lakdir. U "javhar"dir. A'rozlar esa o'z zotida tura olmaydigan narsadir va ranglar, borliqlar, ta'mlar, hidlar kabi jismlarda va javharlarda paydo bo'ladi.

Zamonaviy falsafa a'roz va ayon so'zlarini istilohiga shunday ta'rif beradi. A'roz – bu aksidensiya, jism va narsalarning o'tkinchi yoki takrorlanuvchi xususiyatlaridir. Javhar esa modda, materiya termini bilan ifodalanadi. Javhar aksidensiyaning aksi bo'lgan substansiya, ya'ni narsa va jismlarning asl mohiyatini ochib beruvchi tushuncha sifatida e'tirof etiladi.

Taftazoniy asarda "borliq" strukturasi va holati to'g'risida to'xtalib, u jamlanish, ajralish, harakat va sukunat holatlarida mavjud bo'lishini aytib o'tadi. Shuningdek, muallif islom dinidagi turli oqimlar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'lgan iroda-ixtiyor erkinligi masalasi yuzasidan o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi. "Bandalar uchun ixtiyoriy fe'llar bor. O'shalar sabab yaxshi amallar bilan band bo'lsa, savob olurlar. Gunoh ishlar bilan shug'ullansalar, azoblanurlar. Yaxshi ishlar Yaratuvchining rizosi bilan bo'lgay, yomoni bo'lsa Xoliqning rizosi bilan emas". Tabiiyki, har qanday olijanoblik, xayrli ishlar o'z tabiatiga ko'ra Xudoning mohiyatidan kelib chiqadi. Xoliq hamma narsaning yaratuvchisi sifatida insonlarni yomon xulq-atvordan tiyib turishga chorlaydi, bunday xulq-atvor insonga xos ijtimoiy hodisa bo'lmasdan, faqatgina kishilarni, ma'lum bir ma'noda aytadigan bo'lsak, imtihon dunyoda sinov uchun yaratilganligi diniy qarashlarimizda ta'kidlanadi. Taftazoniyning ixtiyor erkinligi borasidagi umumiy xulosasi shundaki, Yaratuvchi o'z bandalariga ikki yo'lni taklif etadi, ulardan birinchisi sharaflil va xayrli ishlar bilan shug'ullanib savobga erishish yoki ikkinchisi, noma'qul mashg'ulotlar bilan band bo'lib, gunohga botishni, oxiri oqibatda jazolanishga sababchi

bo'ladigan amallarni sodir etishida ayblanadi. Mutafakkirni ta'kidlashicha, inson xudo tomonidan ko'proq xayrli ishlar qilishga buyurilgan. Nomaqbul ishlar esa, insonning xohish-irodasiga bog'liq holda sodir bo'lishi aytib o'tiladi.

Alloma Taftazoniy "Sharh al-aqoid" asarida yana bir dolzarb mavzuga to'xtalib o'tadi, ya'ni, tasavvuf ilmi va valiylik karomatlari haqiqat ekanligi. Mazkur mavzu o'sha davrda ham bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki hozir kunda islom dini kontekstida paydo bo'lgan ba'zi oqimlar valiylik karomatlarini va tasavvuf ilmini inkor etmoqdalar. O'zlarining shu kabi noto'g'ri qarashlar va ta'limotlarini himoya qilish va tashqi yod ta'sirlarga nisbatan immunitet shakllanmagan ijtimoiy qatlamlar (ko'proq yoshlar)ga singdirish yo'llaridan foydalanmoqdalar. "Sharh al-aqoid an-nasafiy"da keltirilgan ba'zi aqidaviy masalalarni to'g'ri tushunish, anglash, to'g'ri talqin qilish va to'g'ri xulosalar chiqarish, dindagi turli xil ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishini oldini oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ahlisunna.uz. Шарх ал Ақоид асарининг Хамидуллох Беруний таржимаси. 2016.23.05.
2. Арабская книга в духовной культуре татарского народа. –Казань. 2003. –Б. 13
3. Ал-Афғоний, Жамолиддин Абдул Мухаммад. Ат-таъликат ъала шарҳ ал-ақоид ал-адудитта. Таҳқиқ Сайид Хади Хосрушахи. – Каир: Мактабат аш-шурук ад-давлийя, предисловие доктор Мухаммад Имары.
4. Дуктур Муҳаммад Муъин. Фарҳанги Форсий. – Техрон, 1371. – Б. 16.
5. Рашид Умар Аърозий. Ҳошия аъла ал-Кашшоф. –Байрут: Дор ал-кутуб ал-исламиyyа, 2012.

ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ И ЭТИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДАХ САЪДУДДИНА ТАФТАЗАНИ И МИР САЙИДА ШАРИФА ДЖУРДЖАНИ

Мустаева Руслана Дамировича

Независимый соискатель Ферганского государственного университета

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Аннотация:

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы исследования социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов, герменевтические основы их социально-этических взглядов, а также воспитательное значение социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов в Новом Узбекистане.

Ключевые слова:

эпоха Темуридов, исторические, социально-культурные условия, социальная среда, социально-нравственные взгляды, философия, справедливость, научно-методологическая основа, воспитание, деятельность, герменевтическая основа, историко-философский анализ.

THE STUDY OF SOCIAL PROBLEMS AND ETHICAL ISSUES IN THE PHILOSOPHICAL

VIEWS OF SA'DUDDIN TAFTAZANI AND MIR SAYYID SHARIF JURJANI

Mustaev Ruslan Damirovich

Independent researcher at Fergana State University

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Abstract:

This article examines the theoretical and methodological foundations of researching the socio-ethical views of Timurid period thinkers, the hermeneutic foundations of their socio-ethical views, and the educational significance of the socio-ethical views of Timurid period thinkers in New Uzbekistan.

Keywords:

Timurid period, historical, socio-cultural conditions, social environment, socio-ethical views, philosophy, justice, scientific and methodological basis, educational, activity, hermeneutic basis, historical and philosophical analysis.